MIGRATSIYANING JAMIYATDAGI IQTISODIY, IJTIMOIY VA SIYOSIY O‘RNI

Mirzarayimova Malika Ilhomjon qizi
Guliston davlat universiteti talabasi

Anotatsiya: Bu maqolada migratsiyaning jamiyatdagi ijtimoiy o‘rni ,mehnat migrantlariga bugungi kundagi munosabatlari va ularga qaratilgan ijtimoiy yordam dasturlari o‘rganilgan. Hozirgi kunda migrantlar oqimining ko‘payishi,ayollar va bolalarning ortib borishi va ularga ijtimoiy yordam ko‘rsatish kabi g‘oyalar ham aytib o‘tilgan. XXI asrda migratsiya va mehnat migratsiyasi masalalari bilan bir qatorda migratsiyaning oilalar faravonligiga ta’siri muammosi ham o‘z dolzarbligini namoyon etlgani ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Migratsiya, soliq, stress, reabilitatsiya, depressiya, infratuzulma, sotsial himoya, sog‘liqni saqlash, subsidiya.

Migratsiya – bu odamlarning turli sabablarga ko‘ra yashash joyidan boshqa joyga ko‘chishi. Migratsiya odamlarning ma’lum bir hududdan tashqariga doimiy yoki vaqtinchalik yashash joyiga ko‘chib o‘tishi bilan sodir bo‘ladi. Aholinig ijtimoiy iqtisodiy, ekologik, siyosiy, diniy, harbiy va boshqa sabablarga ko‘ra migratsiya tashkiliy (davlat va boshqa ijtimoiy tuzulmalar ishtirokida) va uyishmagan (migrantlarning o‘zidan bo‘lishi mumkin. Odamlarning migratsiyasi qadim zamonlardan beri mavjud. Migratsiya birinchi ijtimoiy mehnat taqsimoti (cho‘pon qabilalarining ajralishi) dehqonchilikning rivojlanishi, hunarmandchilikning dehqonchilikdan ajralishi, xalqlarning katta ko‘chishi, buyuk geografik kashfiyotlar, sanoatning rivojlanishi (asr boshlarida) bilan bog‘liq edi (19-asr). 20-asrda urushlar migratsiyaga katta ta'sir ko‘rsatdi. Migratsiya insoniyat taraqqiyotida va xalqlar o‘rtasida hududlarni qayta taqsimlashda muhim rol o‘ynadi. Migratsiya ham doimiy aholining, ham emigrantlarning turmush darajasiga, aholining demografik va ijtimoiy tuzilishiga, joylashuviga, etnografik tarkibining o‘zgarishiga sezilarli ta'sir ko‘rsatadi. Migratsiya jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatlariga sezilarli ta'sir ko‘rsatadi. Uning jamiyatdagi o‘rni ham ancha murakkab. Misol uchun: Migratsiya orqali ishchi kuchining harakatlanishi mamlakatlar iqtisodiyoti uchun foydali bo‘lishi mumkin. Kam rivojlangan mamlakatlardan rivojlangan davlatlarga ko‘chgan ishchilar mehnat bozori ehtiyojlarini qondiradi, soliqlar to‘laydi va puk o‘tkazmalari orqali o‘z vatani iqtisodiyotiga hissa qo‘shadi. Soliqlar asosli, barqaror va moslashuvchan bo‘ladi[1]. Migrantlarning o‘z davlatiga yuboradigan pul mablag‘lari (ya'ni, pul o‘tkazmalari) ko‘plab davlatlar iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) va Jahon bankining ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo miqyosida migrantlar tomonidan yuboriladigan mablag‘larning umumiy hajmi yildan- yilga ortib bormoqda.

Masalan, O‘zbekiston misolida, 2022 yilda mamlakatga Xorijdan yuborilgan pul o‘tkazmalari hajmi 16-17 milliard AQSh dollariga yetdi. Bu mablag‘larning katta qismi Rossiya, Qozog‘iston, Janubiy Koreya, Turkiya kabi mamlakatlardagi o‘zbek migrantlari tomonidan yuborilgan.Buning barchasi davlatning makroiqtisodiyotini rivijlanishiga yordam bo‘ladi.Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqiyot yo‘lining chuqur taxlili,globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib bormoqda bunga qisman qilib migratsiya jarayonini misol qilib ko‘rishimiz mumkin.[2] Migratsiya hozirgi kunda ancha ommalashgani uchun O‘zbekistonda migratlarga qaratilgan muammolarni bartaraf qilish uchun valyutani tartibga solishning ilg‘or bozor mexanizimlarini bosqichma – bosqich joriy etish kun tartibidagi birlamchi masalalardan biri hisoblanadi.SHuning uchun ham valyutani tartibga solishning yangicha mexanizimlarini ishlab chiqish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorini tayyorlash harakterlar strategiyasida belgilanib qo‘yilgan.[3]

Aholi migratsiyasi murakkab ijtimoiy hodisa bo‘lib bu fenomen hozirgi kunda jamiyat hayotining barcha sohalariga tasir ko‘rastmoqda .Bizning vatanimiz O‘zbekistonda ham

[1] Harakatlar Strategiyasi 2017-2021-yil 195-bet
[2] Harakatlar Strategiyasi 2017 -2021 yil 187-bet
[3] Harakatlar strategiyasi 2017-2021-yil 192 bet

emigrantlarni qabul qiladi .Shu bilan O‘zbekiston global migratsion jarayonda emigrant davlat sifatida ishtirok etayotganini millionlab fuqarolarimizning ta’lim olish va mehnat qilish maqsida chet davlatlariga migratsiya qilayotgani misolida keltirish mumkin .Hozirgi kunda O‘zbekiston davlati asta sekin rivijlanib borgaligi sababli ishchi kuchining oshib borishi aholining ish bilan taminlanmasdan qolib ketishiga olib keladi. Mamlakatimizda migratsiya keng tarqalgan bo‘lsa-da,bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar sanonqliligicha qolmoqda .Xususan ,migratsiya jarayoni turli-xil olimlar o‘z tadqiqotlari orqali o‘rganishgan .Misoluchun;Migratsiya jarayonini ijtimoiy-gumanitar soha doirasida R.Madaliyeva ,T.Saidbayev, K.Kalanov , A.Rasulov, N. Qurbonov va F. Parmonovlar o‘zlarining tadqiqotlarida qisman yoritgan .O‘zbekistonda migrant oilalar ijtimoiy-psixologik tarafdan birinchi bo‘lib H.Abdusamatov tomonidan o‘rganilgan. Migratsiya jarayoni ko‘plab ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu muammolar migratsiya turlariga, ya'ni ichki yoki tashqi migratsiyaga qarab turlicha bo‘lishi mumkin. Quyida migratsiya bilan bog‘liq asosiy ijtimoiy muammolar keltirilgan:

1.Ijtimoiy ajralish va integratsiya qiyinchiliklari: Migrantlar yangi joyga kelganda, mahalliy jamiyatga moslashish va integratsiyalashishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Til, madaniyat, din yoki urf- odatlar farqi ijtimoiy ajralishlarga olib kelishi mumkin.

2.Ishsizlik va ijtimoiy notenglik: Migratsiya natijasida mehnat bozori ortiqcha yuklanadi, bu esa mahalliy ishchi kuchiga raqobatni oshiradi. Migrantlar ko‘pincha past maoshli ishlarni bajarishga majbur bo‘lishadi va bu ijtimoiy notenglikni kuchaytiradi.

3. Xavfsizlik va jinoyatchilik darajasining oshishi: Ayrim hollarda migratsiya jinoyatchilik darajasining oshishiga olib kelishi mumkin, ayniqsa, migrantlar ish topa olmaganda yoki ijtimoiy himoyadan chetda qolganlarida.

4.Aqliy salomatlik va stress: Migratsiya jarayoni odamlar uchun katta psixologik zo‘riqishlarni keltirib chiqaradi. Ular yangi muhitga moslashishda stress, yolg‘izlik va depressiyadan aziyat chekishi mumkin.

5. Uy- joy va infratuzilma muammolari: Migrantlar soni ortishi bilan uy- joy yetishmovchiligi va infratuzilma bilan bog‘liq muammolar yuzaga keladi. Bu qishloqdan shaharga ko‘chib kelish jarayonida yaqqol seziladi.

6.Sog‘liqni saqlash xizmatlariga kirish imkoniyati: Migrantlar sog‘liqni saqlash xizmatlariga kirishda to‘siqlarga duch kelishi mumkin. Bu ayniqsa noqonuniy migrantlar uchun katta muammo bo‘lib, ularning sog‘liqni saqlash tizimiga kirishi cheklangan bo‘ladi.

7.Madaniy identifikatsiya yo‘qotilishi: Migrantlar o‘z vatandagi madaniyat, urf- odat va qadriyatlarini yo‘qotish xavfi ostida bo‘lishadi, bu ularning madaniy o‘zligiga zarar yetkazishi mumkin.

Migratsiya ijtimoiy jihatdan katta ahamiyatga ega va u yaxshi boshqarilmasa, ko‘plab ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.Agar bularning barchasi to‘g‘ri tartibga solinmasa mamlakatda ishsizlik kambag‘alchilik tez suratlarda oshib borib mamalakat iqtisodiyotiga ancha tasirini ko‘rsatadi.SHuni alohida takidalb zarurki 2000-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasida davlatlar va xukumatlar Mingyillik deklaratsiyasi qabul qilinib,keyinchalik Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) belgilangan.Kambag‘allik va ochlikga barxam berish masalalariga alohida e’tibor berilib ,BRMning birinchi “Kmabag‘allik va ochlikga barxam berish” maqsadi o‘z aksini topdi. [1]Hozrgi kunda Migrantlarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish mamlakatning migratsiya siyosatiga bog‘liq va bu ko‘plab omillarga asoslanadi, jumladan, migrantlarning huquqiy maqomi, yashash ruxsatnomasi turi, ish joyi, va jamiyatga integratsiya darajasi.

Odatda migrantlarga quyidagi ijtimoiy yordam turlari ko‘rsatiladi:

1. Yashash va ishlash ruxsatnomasiga ega bo‘lgan migrantlar: Ijtimoiy nafaqalar: Yashash maqomi asosida migrantlar pensiya, bolalar uchun nafaqalar yoki vaqtinchalik ishsizlik nafaqalarini olishlari mumkin.

[1] O’zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga va O’zbekiston xalqiga murojatnomasida ilmiy -ommabop risola 2021-yil 167-bet

O‘qish va ta'lim: Migrantlar bolalari davlat maktablarida bepul yoki subsidiyalangan ta'lim olishlari mumkin. Ko‘p mamlakatlarda katta yoshli migrantlar uchun til va malaka oshirish kurslari taklif etiladi.

Uy- joy yordami: Ba'zi davlatlarda uy- joy bo‘yicha subsidiya yoki ijaraga yordam ko‘rsatiladi.

Sog‘liqni saqlash xizmati: Aksar mamlakatlarda doimiy yashash ruxsatnomasiga ega migrantlar milliy sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish huquqiga ega. Qochqinlar va boshpana so‘ragan shaxslar:

• Vaqtincha boshpana: Ko‘plab davlatlar qochqinlarga yoki boshpana so‘ragan shaxslarga vaqtinchalik boshpana va asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun yordam ko‘rsatadi (ovqat, kiyim, uy-joy).

• huquqiy yordam: huquqiy masalalarda, masalan, hujjatlarni tayyorlash va davlat idoralari bilan ishlashda yordam berish.

Reabilitatsiya va integratsiya dasturlari: Til kurslari, kasb- hunar ta'limi, madaniy integratsiya dasturlari. Nodavlat tashkilotlar (NNT) va xalqaro tashkilotlar yordami: o ko‘pgina xalqaro va mahalliy NNTlar migrantlarga huquqiy maslahat, psihologik yordam va ish qidirishda yordam berishadi.

Migrantlarga ko‘rsatiladigan yordam mamlakatning ichki siyosati, iqtisodiy holati va xalqaro majburiyatlariga bog‘liq. har bir davlatning o‘ziga xos me'yorlari va talablari bor .Ular quydagilarni tashkil qiladi.

Davlatlarning migrantlarga yordam ko‘rsatish bo‘yicha talablari va siyosatlari turlicha bo‘lib, ular ko‘pincha mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy vaziyatiga bog‘liq. Umuman olganda, davlatlar quyidagi yo‘nalishlarda migrantlarga yordam ko‘rsatishlari mumkin:

1. Qonuniy huquqlarni ta'minlash:

• Viza va ruxsatnomalar: Davlatlar migrantlarga qonuniy asosda ishlash yoki yashash uchun viza va ruxsatnomalar beradi.

• Asosiy huquqlarni himoya qilish: Migrantlarning ishchi huquqlari, sog‘liqni saqlash va ta'lim olish kabi sohalarda qonuniy himoya qilinishini ta'minlaydi.

Sotsial yordam va integratsiya:

• Til kurslari va madaniy moslashuv dasturlari: Ko‘pgina davlatlar migrantlar mahalliy jamiyatga moslashishi uchun til kurslari va madaniy treninglar tashkil etadi. • Sotsial himoya: Migrantlarga vaqtinchalik boshpana, oziq- ovqat, va sog‘liqni saqlash xizmatlari kabi ijtimoiy yordam ko‘rsatiladi.

3. Ish bilan ta'minlash:

• Ish izlashga yordam berish: Migrantlar uchun maxsus ish bozorlariga yo‘naltirilgan dasturlar tashkil qilinadi. • Kasbiy malaka oshirish: Ko‘plab davlatlar migrantlarning malakasini oshirish uchun treninglar va kasbiy tayyorgarlik kurslarini o‘tkazadi.

4. Sog‘liqni saqlash va ta'lim:

• Sog‘liqni saqlash xizmatlari: Ba'zi davlatlar migrantlarga bepul yoki subsidiyalangan tibbiy xizmatlar taqdim etadi. • Bolalarning ta'lim olishi: Migrantlarning bolalari davlat maktablarida bepul yoki subsidiyalangan ta'lim olish huquqiga ega bo‘lishi mumkin. Qonuniy himoya va maslahat berish:

huquqiy yordam: Migrantlarga huquqiy maslahat va himoya xizmatlari taqdim qilinadi.

• Sudga murojaat qilish huquqi: Agar migrantlar huquqlari buzilsa, ular davlat sudlariga yoki xalqaro tashkilotlarga murojaat qilishlari mumkin.

6. Boshpana va himoya:

• Qochqinlarni qabul qilish: Ba'zi davlatlar qochqinlar uchun maxsus dasturlar joriy qiladi va ularga boshpana beradi.

• himoya maqomi: Ayrim migrantlar davlatdan maxsus himoya maqomi olishlari mumkin, bu ularga ko‘proq qonuniy va ijtimoiy imtiyozlar beradi.Bu talablarga davlatning immigratsiya siyosati, xalqaro huquqiy me'yorlar va ijtimoiy- iqtisodiy omillar ta'sir ko‘rsatadi. har bir davlatning migrantlarga ko‘rsatadigan yordami bu omillarga qarab o‘zgarishi mumkin .

Hozirgi kunda migratsiya darajasi ancha yuqorilagan .Dyarli barcha davlatlarni egallay boshlagan deb qisman aytsak ham bo‘ladi. Misol uchun migrantlar soni 300 millionga yaqinlashdi. 2024- yil holatiga ko‘ra, dunyoda 281 milliondan ortiq xalqaro migrant mavjud, bu yer sharidagi umumiy aholi sonining taxminan 3,6 foizini tashkil etadi. Migratsiya asosan ish, ta'lim, va turli qiyinchiliklar tufayli amalga oshmoqda. Migrantlarning aksariyati Yevropa va Osiyoda yashaydi, bu ikki mintaqa global migratsiyaning 61 foizini qamrab oladi. Shimoliy Amerika, Lotin Amerikasi va Karib mintaqalarida ham katta sonli migrantlar mavjud (kun) (daryo).

Rossiyada esa migrantlar soni 6,2 millionni tashkil etadi va mamlakat dunyo bo‘yicha to‘rtinchi o‘rinda turadi. Migrantlar asosan ish uchun keladi, ammo mamlakatda noqonuniy migratsiyaga qarshi kurash choralari kuchaytirilgan.O‘zimizda migrat aholi ham ancha kishini tashkil qiladi. 2024- yil holatiga ko‘ra, O‘zbekistondan xorijga ishlash uchun ketgan mehnat migrantlari soni taxminan 2 million kishini tashkil etadi. Bu migrantlarning 72% erkaklar va 28% ayollardir. Migratsiyaning asosiy yo‘nalishi Rossiya bo‘lib, bu mamlakatda o‘zbekistonlik migrantlarning katta qismi joylashgan. O‘zbekiston hukumati mehnat migratsiyasini tartibga solishga va xorijdan qaytgan migrantlarni ish bilan ta'minlashga qaratilgan chora- tadbirlarni davom ettirmoqda . O‘zbekistonda eng ko‘p migrantlar qaysi viloyatdan ?

O‘zbekistonda eng ko‘p migrantlar Samarqand va Qashqadaryo viloyatlaridan kelib chiqadi. Ushbu viloyatlar aholisi asosan Rossiya, Qozog‘iston va boshqa davlatlarga ish izlab ketishadi. Bundan tashqari, Farg‘ona vodiysi viloyatlaridan, xususan, Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyatlaridan ham migrantlar soni yuqori. Bu viloyatlarda ish imkoniyatlarining cheklanganligi, iqtisodiy sharoitlar va boshqa omillar aholining chet elga chiqib ishlashga intilishiga sabab bo‘ladi.[1]

Xulosa o‘rnida aytib o‘tishim mumkinki, migratsiya jarayoni davomli, to‘xtamaydigan jarayon hisoblanadi. Chunki bu hozirgi zamon talabi shu .Migratsiyaga ketmoqchi bo‘lganlar yoki bo‘lmasam ketgan shaxslar faqat moddiy mablag‘larni o‘ylab tavakkal qilmasligi kerak. Agar ishni puxta o‘rganilmasa keyin salbiy holatlarga kelishi mumkin. Migratsiyaga yo‘lga otlangan shaxs har bir ishni ijbiy va salbiy tomonlarini o‘rgangan hold ava albatda tadqiqotlarda ko‘rib chiqish lozim.Migratsiyaga qaror qilgan shaxs o‘zining holatidan kelib chiqqan holda. O‘zi uchun va oilasi uchun eng maqul yolni ko‘rishi lozim.

To‘gri bir narsani tan olish kerakki, migratsiyaning bir qancha ijobiy taraflari ham bor. Masalan: iqtisodiy barqarorlik, dunyo qarashning kengayishi kabi ijobiy holatlardir.

Oldin biz ko‘p kuzatganmiz erkak migrantlarini lekin hozirgi kunga kelib ayol migrantlarninig oshib bormoqda.Shu sababli ayol migrantlarga ketishidan oldin psixologik yordam ishlarini tashkil qilishni samarali yo‘lga qo‘yish migrant ayollar uchum yaxshi natija beradi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

2. Bazyleva S.P. Mintaqaviy qarama- qarshiliklar sharoitida zamonaviy migratsiya jarayonlari O‘zbekiston misolida/ Byulleteni of RUDN. 2018.# 1.- S.103- III.

3. O‘zbekiston Respublikasida mehnat migratsiyasi: ijtimoiy, huquqiy va gender jihatlari. Shanba San'at./ Javob. tahrir. E. V. Abdullaev.: Toshkent, 2008.—204

4. O‘zbekistonda xavfli ish bilan ta'minlash: holati, muammolari va ularni hal qilish yo‘llari./ BMT Taraqqiyot Dasturining" Barqaror rivojlanish uchun strategik tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash" loyihasi doirasidagi tahliliy ma'ruza, 2018 yil (www.uz.undp.org)

5.O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O‘zbekiston Xalqiga Murojatnomasi.2021-yil 161-bet

[1] O’zbekiston Respiblikasi Davlat statistika qo’mitasi



2-shu’ba: